

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”
Qo‘qon davlat universiteti
rektori D.Sh.Xodjayeva
30-iyun 2025-yil

SOTSIAL PSIXOLOGIYA
FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi: 300000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistik va axborot
Ta’lim sohasi: 310000 – Ijtimoiy va xulq-atvorga mansub fanlar
Ta’lim Ta’lim yo’nalishi: 60310300 – Psixologiya

Fan/mavzu kodi SP14512		O'quv yili 2025-2026	Semestr 4/5	Kreditlar 6/6	
Fan/mavzu turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 6/4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Sotsial psixologiya	90/60		90/120	150/210
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad – bo'lg'usi psixologlarga, shaxs va jamiyat munosabatlariga oid psixologik qonuniyatlarni, jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlarning shaxs ijtimoiy xulqiga ta'sir ko'rsatishini tushuntiruvchi mexanizmlar to'g'risida bilim berishdir. Fanning vazifalari – “Sotsial psixologiya” fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talabalar, katta va kichik guruhlar ijtimoiy psixologiyasi; shaxsning jamiyatda ijtimoiylashuvi jarayoni; etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar hamda milliy urf-odat, an'analar va ularning ijtimoiy-psixologik funktsiyalari haqidagi tushuncha va ma'lumotlarni o'zlashtirishlari lozim bo'ladi. II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II. I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-MODUL. Sotsial psixologiya 1-mavzu. Sotsial psixologiya fan sifatida Sotsial psixologiya – odamlarning jamiyatda hamkorlikdagi ish faoliyatlari jarayoni davomida ularda hosil bo'ladigan tasavvurlar, fikrlar, e'tiqodlar, g'oyalar, his-tuyg'ular, kechinmalar, turli xulq-atvor shakllarini tushuntirib beruvchi fan ekanligi. Sotsial psixologiya shaxs va jamiyat munosabatlarini takomillashtirishga xizmat qiluvchi fan sohasi sifatida. Uning asosiy vazifalari va o'rganish obektlari. Fan predmetini aniqlashga bag'ishlangan turlicha qarashlar bayoni. Psixologiya va sotsiologiya – Sotsial psixologiya predmetini aniqlashga imkon bergan asosiy fan tarmoqlari sifatida. 2-mavzu. Sotsial psixologik qarashlarning rivojlanish tarixi Sotsial psixologiya fan sifatida navqiron, lekin ijtimoiy-psixologik tafakkurning mavjudligi nuqtai nazaridan o'ta qadimiy fan ekanligi. Eramizdan avvalgi faylasuflar – Platon, Aristotel va ularning izdoshlari talqinida ijtimoiy-psixologik muammolarning hal qilinishi. Yangi davr va				

ijtimoiy-psixologik jarayonlarning sanoat va migrasiya rivojlanishi munosabati bilan o'zgarishi, qator fanlar – tilshunoslik, antropologiya, etnografiya, sotsiologiya, umumiy psixologiya, patopsixologiya kabilarning ijtimoiy psixologiya predmeti shakllanishiga ta'siri.

Ijtimoiy-psixologik fikrlar takomillashuvining uch nazariy manbasi – xalqlar psixologiyasi, omma psixologiyasi, ijtimoiy xulqning instiktlari nazariyasi.

Ijtimoiy psixologiya rivojlanishining eksperimental bosqichi: Amerika hamda Yevropa mamlakatlarida o'tkazilgan dastlabki ijtimoiy-psixologik sinovlar va eksperimentlar. Salomon Ash va boshqalarning eksperimental tadqiqotlari. Jahonni lol qoldirgan 100 eksperiment haqida.

Ijtimoiy psixologiyaning Rossiyada va sobiq ittifoq davlatlarida rivojlanishi. B.Parigin, G.Andreeva, R.Krichevskiy, Umanskiy va boshqalarning tadqiqotlari. O'zbekistonda o'tkazilgan asosiy ijtimoiypsixologik tadqiqotlar va ularning istiqbolni belgilashdagi ahamiyati. SHaxslararo munosabatlar va etnopsixologik tadqiqotlarning yo'nalishlari. O'zbekistonda gender tadqiqotlarning istiqboli.

3-mavzu. Sotsial psixologiyaning metodlari

Sotsial psixologiyada qo'llaniladigan metodlarning o'zga psixologiya yo'nalishlaridan farqi. SHaxsni guruh sharoitida va guruhlararo munosabatlar tizimida o'rganish ijtimoiy psixologiyaning asosiy maqsadi ekanligi. Ijtimoiy psixologiyada kuzatuv: ichki va tashqi kuzatuv, faoliyat bilan qo'shilgan holda kuzatuv; ijtimoiy-psixologik eksperiment, kontentanaliz, proektiv metodikalarning o'ziga xosligi. Ijtimoiy-psixologik trening to'g'risida tushuncha.

4-mavzu. Sotsial psixologiya o'rganadigan asosiy masalalar

Muloqot va shaxslararo munosabatlar psixologiyasi. Jamiyat hayotida muloqotning tutgan o'rni. Muloqotning ijtimoiy mohiyati. Muloqot va muomala – shaxsning alohida ijtimoiy-psixologik sifatlarini belgilovchi fenomen sifatida. Muloqotning funktsiyalari, bosqichlari va turlari. Muloqotning ijtimoiy-psixologik ahamiyati.

Muloqotning tizimi. Muloqotning kommunikativ tomoni. G.M.Andreeva asarlarida muloqotning ijtimoiy-psixologik tizimiga oid qarashlar. Muloqot shaxslararo axborotlar almashinuvi, kommunikasiya sifatida. Verbal va noverbal muloqot to'g'risida tushuncha, ularning psixologik mexanizmlari va muloqotda kommunikativ samaradorlik masalasi.

Muloqot – interaktiv hamkorlik sifatida. Interaktiv muloqotning ijtimoiy-psixologik va tarbiyaviy mohiyati. SHaxsning turli ijtimoiy rollarni bajarishi jaaryonida o'ziga o'xshash shaxslarga ta'sir ko'rsata olishini

ta'minlovchi mexanizmlar. Pedagogik avtoritet, obro' – shaxslararo o'zaro ta'sirda samarali mexanizm ekanligi.

Muloqot – shaxslararo bir-birini idrok qilish ekanligi. Muloqot va pertsepsiya muammosi. Ijtimoiy pertsepsiyaning psixologik mexanizmlari – identifikasiya, refleksiya va stereotipizatsiya fenomenlari. Muloqotdagi stereotiplar va kauzal atribusiya tushunchalari. A.A.Bodalev eksperimentlarining mohiyati va ularni amaliyotda qo'llash imkoniyatlari. Empatiya – o'zgalarning his-kechinmalarini tushunish qobiliyati ekanligi. Shaxslararo o'zaro idrok va o'zaro tushunishning samardorligi muammosi.

Nizolar va ularning kelib chiqishi. Nizolarni bartaraf etish usullari. Shaxslararo o'zaro muloqotda ziddiyatlarning ham paydo bo'lishi ehtimoli: konstruktiv va destruktiv nizolar haqida tushuncha. Nizolarning shaxslararo muloqot jarayonida va ishlab chiqarish, ta'lim-tarbiya jarayonlarida kelib chiqishi shart-sharoitlari. Mehnat yoki boshqa jamoada paydo bo'ldaigan nizolarning bosqichlari, ularni o'z vaqtida bartaraf etish imkoniyatlari va usullari.

5-mavzu. Katta guruhlar psixologiyasi

Sotsial psixologiya uchun guruh – asosiy o'rganish obektlaridan biri ekanligi. Guruhlar klassifikatsiyasi: katta va kichik guruhlar. Katta guruhlarining ijtimoiy mohiyati, funktsiyalari va toifalanishi. Katta guruhlarining tasnifiy belgilari. Katta guruhlarda tadqiqotlar o'tkazilishining metodologik tamoyillari.

6-mavzu. Kichik guruhlar psixologiyasi

Kichik guruhlardagi ijtimoiy-psixologik fenomenlar to'g'risida. Kichik guruhlariga oid qonuniyatlar, ularning klassifikatsiyasi: rasmiy va norasmiy guruhlar, birlamchi va ikkilamchi guruhlar. Referent guruh tushunchasi. Kichik guruhlarda sodir bo'ladigan dinamik jarayonlar: guruhning hajmi, uyushqoqligi, konformlilik, liderlik.

7-mavzu. Sotsial psixologiya va shaxs

Sotsial psixologiyada shaxs muammosi. Shaxsning ijtimoiypsixologik tipologiyasi. Shaxsni o'rganishning ijtimoiy psixologiya uchun o'ziga xosligi. Muloqot jarayonida namoyon bo'ladigan shaxs fazilatlar. Shaxsning ijtimoiy psixologiyasida o'rganiladigan fenomenlari: shaxs sotsializatsiyasi; shaxsning ijtimoiy ustanovkalari va muloqatmandlilik sifatlar. Ekstrovert va introvert tiplar; ambivert va rigid tiplar; dominant va tobe tiplar.

Shaxsning ijtimoiylashuvi. Shaxsning ijtimoiy ustanovkalari. Shaxsning ijtimoiylashuvi. Oilaviy ijtimoiylashuv va uning muhim jihatlari. Ijtimoiylashuv sohalari, bosqichlari va manbalari. Shaxsning ijtimoiy ustanovkalari: set va attitude shaxs ustanovkalarining o'ziga xos bosqichi va

ko'inishi ekanligi. Ijtimoiy ustanovkaning tizimi, funktsiyalari va uning shaxs dispozitsiyalari (V.Yadov) bilan aloqasi. Ijtimoiy ustanovkalarni o'zgartirish muammosi.

8-mavzu. Sotsial psixologiya va xavfsizlik

Sotsial psixologiya va xavfsizlik: mohiyati, shaxsni ijtimoiy-psixologik himoya qilish muammolari. Ijtimoiy psixologiyada xavfsizlik muammosining qo'yilishi: mohiyati, shaxsni ijtimoiy-psixologik himoya qilish muammolari. Axborot xavfsizligi va uning kelib chiqish shartlari. Xavfsizlik turlari. Informasion-psixologik xavfsizlik. SHaxsni o'zini o'zi himoya qilish vositalari. Turli axborot-psixologik xavfli vaziyatlarda shaxsning ijtimoiy xulqi.

9-mavzu. Sotsial psixologiyaning amaliy-tadbqiq sohalar.

Ijtimoiy psixologik xizmat.

Ijtimoiy psixologiyaning amaliy-tadbqiq sohalar: sanoat, ishlab chiqarish, maktab va ta'lim muassasalari, OAV, oila. Ijtimoiy-psixologik xizmat va amaliyotchining vazifalari. O'zbekistonda ijtimoiy-psixologik xizmat samaradorligini oshirish muammolari.

2-MODUL. Etnopsixologiya

10-mavzu. Etnopsixologiya fanining predmeti va vazifalari

Etnos tushunchasining mohiyati. Etnos – tarixiy tarkib topgan, umumiy nisbatan barqaror ruhiyat va madaniyatga ega kishilar birligi sifatida. Etnopsixologiyaning predmeti va obyekti. Etnopsixologiyani o'rganishning dolzarbligi hamda ilmiy-amaliy ahamiyati. Etnopsixologik xususiyatlarni o'rganishdagi murakkabliklar. Etnopsixologiyaning vazifalari. Hozirgi davrda etnopsixologiyani o'rganishning amaliy ahamiyati.

11-mavzu. Etnopsixologik tadqiqotlarning G'arb va Sharqda o'rganilishi

Yunonistonda turli halqlarga xos bo'lgan etnopsixologik xususiyatlarni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarning vujudga kelishi. Gippokratning "Suv, havo va quruqlik" degan asarida bayon qilgan fikrlari mohiyati. Psixologik xususiyatlarning vujudga kelishida tabiiy-geografik muhitning roli. Gerodatning "Tarix" kitobida xalqlarga xos psixologik xususiyatlarni vujudga kelishida hayot tarzi va muhitning roli to'g'risidagi fikrlari mazmuni. Skiflarning xarakterlanishi. Pifagor nazariyasi. Aristotel qarashlar. Gegelning "Mutlaq ruh" nazariyasi va uning mohiyati. Sh.Monteskening "geografik determinizm" nazariyasi.

Mutafakkir Forobiyning etnopsixologiya faniga qo'shgan hissasi. Abu Rayhon Beruniyning fanga qo'shgan hissasi.

12-mavzu. Etnopsixologiyaning metodlari

Etnopsixologik tadqiqotlarning o'ziga xosligi va ularga qo'yiladigan metodologik talablar. G.U. Ksoeva taklif etgan to'rt guruh metodlar: shkalali o'lchov, kuzatish va so'roq, proyektiv metodlar va shaxsning alohida sifatlarini aniqlashga qaratilgan testlar. Etnopsixologik muhitning o'ziga xosligini inobatga olib tuziladigan ijtimoiy-psixologik so'rovnomalar. **13-mavzu. Etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar**

Etnopsixologiyaning ko'p qirraligi, tabiiy sharoitlar, iqtisodiy xususiyatlar, siyosiy va g'oyaviy ustqurtmalarning ta'siri. Xalq hayotida bo'lib o'tgan muhim tarixiy voqealarning psixologiyada aks etishi. O'zbek xalqiga xos ayrim psixologik xususiyatlar va ularning shakllanish sabablari. Faoliyat turi va shaklidagi farqlar va oliy ruhiy funktsiyalar tizimidagi tafovutlar.

Biofiziologik moslanish va antropologik xususiyatlar. Turar joy va kiyim-kechaklar. Tabiiy sharoitlarga asrlar davomida moslashish natijasi. Tabiiy muhit va mehnat faoliyati. Bilish jarayonlarining ijtimoiy-iqtisodiy omillarga bog'liqligi. Sinfy psixologiyaning vujudga kelishi. Milliy va sinfiy psixologiyaning o'zaro ularning etnik psixologiyadagi nisbati.

14-mavzu. Milliy xarakter muammosi

Milliy xarakter murakkab ijtimoiy hodisa. Milliy xarakter va xalq tarixi. Tarixiy davr va xarakter tipi. Milliy xarakterning tashkil etuvchi komponentlar. Xarakterining intellektual va irodaviy xususiyatlari. Ijtimoiy tuzumning o'zgarishi va milliy xarakterdagi o'zgarishlar. Milliy xarakterdagi turg'un xususiyatlar. Milliy va umuminsoniy xarakter xislatlari. O'zbek xalqining xarakter xususiyatlari va ularning shakllanish tarixi.

15-mavzu. Milliy urf-odat, an'analar va ularning ijtimoiy-psixologik funktsiyalari

Urf-odat va an'analarda xalqning ijtimoiy ehtiyojlari, manfaatlari va amaliy tajribalarining aks etishi. SHaxs shakllanishida milliy urf-odat va an'analarning roli. Milliy urf-odat va an'analar ijtimoiy tajribalar va axloqiy xulq-atvor normalar vorisligi sifatida.

Tabu (qatag'on) va tadqiqotlarning ijtimoiy funktsiyalari. Urf-odat va an'analarning regulativ vazifalari. Urf-odat va "an'ana" tushunchalari. Ushbu tushunchalardagi umumiylik va farqlar. O'zbek urf-odat an'analari. Ilg'or va eski urf-odatlar.

Davr va ijtimoiy tizimlardagi o'zgarishlar va yangi urf-odat va an'analarning vujudga kelishi. Qo'shni xalqlarning milliy urf-odatlarini vujudga kelishidagi roli.

16-mavzu. Milliy tuyg'ular va ta'b (did)lar

Milliy tuyg'ular insonning voqeyelikdagi barcha narsa-hodisalar va jarayonlarga, ona tabiat va zaminga, tarix va ma'naviy merosga bo'lgan munosabati sifatida. Milliy tuyg'ularga xos xususiyatlar.

Vatanga va ona tiliga bo'lgan munosabat – milliy tuyg'ular namoyon bo'lishning oliy shakli sifatida. Milliy tuyg'ularning millat jipslashuvi va mustaqil davlat tuzilishidagi roli. Milliy ta'b (did) shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar. Iste'mol qilinadigan oziq-ovqatlarga nisbatan o'ziga xos streotiplarning vujudga kelishi.

17-mavzu. Milliy ong va milliy o'zlikni anglash.

Etnik attityud va steriotip

Milliy ong bu o'zining muayyan millatga (etnik birlikka) mansubligini anglash shakli sifatida. Milliy ongning shakllanishi. Milliy ongning madaniyatni turli shakllariga ko'rsatadigan ta'siri.

Milliy o'zlikni anglash. Milliy ongning tuzilmasiga kiruvchi unsurlar. Milliy o'zlikni anglashning ta'rifi. Ularning sub'ektivlik xususiyatlari va funktsiyalari.

Etnik attityud va uning ijtimoiy mohiyati. Etnik streotip etnik birlikning timsoli sifatida. Millatlararo munosabatlar xarakterining steriotiplar shakllanishiga ta'siri. Streotiplashtirish – idrok etishning ratsional shakli sifatida. Streotiplashtirishning vazifalari. Vazifalarni psixologik, ijtimoiy-psixologik va sotsial qismlarga bo'linishi.

18-mavzu. Etnopsixologik xususiyatlarni madaniyatda namoyon bo'lishi va ommaviy madaniyatning millatga ko'rsatadigan ta'siri

Etnopsixologik xususiyatlarni tadqiq etishdagi muammolar. Etnopsixologik xususiyatlarni madaniyatda obyektiv namoyon bo'lishi. Milliy madaniyat xususiyatlari va etnik psixologiya o'rtasidagi bog'liqlik. Milliy xarakter va tipik badiiy qahramon. Etnik xususiyatlarni o'rganishda xalq og'zaki ijodi-afsonalar, rivoyatlar, maqol va matallarning roli.

Borliqni idrok qilishning mahalliy til xususiyatlariga bog'liqligi. Milliy xarakter, temperament, manfaatlar va kayfiyatlarni milliy san'at turlari – raqsda, musiqada, rang-tasvir va me'morchilikda muhrlanishi va namoyon bo'lishi. Ommaviy madaniyatning millatning shakllanishiga ko'rsatadigan ta'siri. Ta'sirlarning ahamiyati va ziyoni.

III-MODUL. Din psixologiyasi

19-mavzu: Din psixologiyasi faniga kirish

Din psixologiyasining predmeti, mohiyati va vazifalari. Din psixologiyasining metodologik masalalari. Din psixologiyasi umumiy psixologiyani tarmoqlararo fan sohasi sifatida. Din psixologiyasi tadqiqot ob'ekti. Din psixologiyasini vazifalarini davr talabiga mutunosib ravishda

o'zgarib turishi. Diniy bag'ri kenglik shaxsning ijtimoiy xususiyati sifatida. Din va din psixologiyasi uzviy bog'liqligi.

20-mavzu. Diniy tizimning psixologik jihatlar

Din jamiyatning ajralmas xayotiy qadriyati sifatida talqin etilishini mohiyati. Diniy tizim unsurlari, uning tuzilishi. Dinning xususiyatlari. Diniy e'tiqodning emotsional va ratsional jihatlar. Diniy kultning psixologik jihatlar. Dindorlar jamoasidagi shaxslararo munosabatlar xususiyatlari. Diniy jamoalarning psixologik tavsifi. E'tiqodda kelib chiqqan xolda psixoz xolatini yuzaga kelishi.

21-mavzu. Dindor shaxs psixologiyasining shakllanish qonuniyatlari.

Dindorlik psixologiyasining ontogenetik taraqqiyotdagi o'rni. Dindor shaxsi rivojlanishining gender xususiyatlari. Dindor shaxsi shakllanishiga diniy tarbiyaning ta'siri. Diniy e'tiqodga targ'ib qilishning ijtimoiy – psixologik tomonlari. Dindor shaxsning shakllanishi xususiyatlari. Dindor shaxsga destruktiv ta'sir ko'rsatish metodlari.

22 – mavzu: Shaxsning e'tiqodi va faoliyat tizimi.

Shaxs faoliyatni din psixologiyasida talqin etilishi. Faoliyatni asosan ikki turi "halol faoliyat" va "xarom faoliyat"ni turli dinlarda targ'ib etilishi. Faoliyatni umumiy psixologiyada o'rganish tizimi, Faoliyat turlari. Z. Fred talqinida faoliyat turlari: ong oldi, ong osti va ongsizlik. Dindagi tabular va ularni qo'llanilishi mohiyatida shaxsning takomillashuvi.

23-mavzu. Diniy e'tiqodning psixologik asoslari va shakllanish xususiyatlari

Nodiniy e'tiqod va diniy e'tiqod: o'xshash tomonlari, farqlari va o'zaro munosabatlari dialektikasi. Diniy e'tiqod psixologik fenomen sifatida. Jahon dinlarida diniy e'tiqod masalasining psixologik qo'yilishi. Islomda diniy e'tiqod va uning o'zga diniy e'tiqodlardan farqi. Ilohiyotning islomdagi va boshqa dinlardagi talqini. Moturudiy ta'limotida e'tiqod masalasi.

24- mavzu: Diniy e'tiqoddan og'ishning ijtimoiy – psixologik mexanizmlari.

Diniy e'tiqoddan og'ishning o'ziga xos mexanizmlari. Diniy etiqoddan og'ishning ijtimoiy psixologik asoslari. Diniy e'tiqoddan og'gan shaxsda yuzaga keladigan sa'lbiy va ijobiy xususiyatlarni psixologiyada talqin etilishi. Diniy etiqoddan og'ish va uni ijtimoiy muhitga ta'siri. Daxriylik shaxsning o'ziga xos xususiyati sifatida. Daxriylikni din psixologiyasida talqin etilishi.

III. Amaliy mashg'ulotlar buyicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar sotsial psixologiyani fan sifatida ekanligini, ijtimoiy-psixologik qarashlarning rivojlanish tarixini, sotsial

psixologiyaning metodlarini, sotsial psixologiya o'rganadigan asosiy masalalarni, katta guruhlar psixologiyasini, kichik guruhlar psixologiyasini, ijtimoiy psixologiyada shaxs muamosini, ijtimoiy psixologiyada xavfsizlik masalasini, ijtimoiy psixologiyaning amaliy-tadbqiq sohalarini hamda ijtimoiy-psixologik xizmat, milliy tuyg'u, milliy temperamentni o'rganadilar.

Amaliy mashg'ulot mavzulari:

1-modul, Ijtimoiy psixologiya qismi bo'yicha:

1. Ijtimoiy psixologiya fan sifatida.
2. Ijtimoiy-psixologik qarashlarning rivojlanish tarixi.
3. Ijtimoiy psixologiyaning metodlari.
4. Ijtimoiy psixologiya o'rganadigan asosiy masalalar.
5. Katta guruhlar psixologiyasi.
6. Kichik guruhlar psixologiyasi.
7. Ijtimoiy psixologiya va shaxs.
8. Ijtimoiy psixologiya va xavfsizlik.
9. Ijtimoiy psixologiyaning amaliy-tadbqiq sohalar. Ijtimoiy psixologik xizmat.

2-modul., Etnopsixologiya qismi bo'yicha:

10. Etnopsixologiya fanining predmeti va vazifalari.
 11. Etnopsixologik tadqiqotlarning G'arb va Sharqda o'rganilishi.
 12. Etnopsixologiyaning metodlari.
 13. Etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar.
 14. Milliy xarakter muammosi.
 15. Milliy urf-odat, an'analar va ularning ijtimoiy-psixologik funktsiyalari.
 16. Milliy tuyg'ular va ta'b (did)lar.
 17. Milliy ong va milliy o'zlikni anglash. Etnik attityud va stereotip.
 18. Etnopsixologik xususiyatlarni madaniyatda namoyon bo'lishi va ommaviy madaniyatning millatga ko'rsatadigan ta'siri.
- 3-modul. Din psixologiyasi:

19. Din psixologiyasi faniga kirish.
20. Zamonaviy g'arb din psixologiyasida diniy fenomenni o'rganishganisbatan yondashuvlar.
21. An'anaviy dinlarning psixologik interpretatsiyasi.
22. Islom ta'limotining psixologik masalalari.
23. Diniy tizimning psixologik jihatlari.
24. Dindor shaxsi psixologiyasining shakllanish qonuniyatlari.
25. Diniy e'tiqodning psixologik asoslari va shakllanish xususiyatlari.
26. Diniy his-tuyg'ular va diniy taskinning psixologik mohiyati.
27. Diniy poklanishing psixologik mohiyati.

Amaliy mashg'ulotlarda mavzularga oid masalalar yechish, savol-javob,

pedagogik texnologiyalar asosida guruh bilan ishlash orqali bajariladi.

VI. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Auditoriyaning tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- esse – dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik vaboshqa janrlarda yozma bayon qilish;
 - dokladlar tayyorlash;
 - kurs ishi yozish;
 - konspekt yozish;
 - glossariy tuzish;
 - individual va guruhli o'quv loyihasi;
 - keys-topshiriqlarini bajarish;
 - mavzuli portfoliolar tuzish;
 - axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash;
 - manbaalar bilan ishlash;
 - infografika tuzish;
 - chizma-tasviriy modellar (intellekt-kart, freym, mantiqiy graf va h.k.) yaratish;
 - multimediali taqdimotlar yaratish;
 - darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlash;
 - darsdan tashqari mashg'ulotlar ishlanmalarini tayyorlash;
- ta'lim 'nalishi(mutaxassislik)ning xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarning boshqa turlaridan foydalanish mumkin.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:

1. Amaliy ijtimoiy psixologiyaning tatbiqiy sohalari.
2. Dastlabki ijtimoiy-psixologik tasavvurlar va ularning namoyon bo'lishi.
3. Ijtimoiy psixologiya va xavfsizlik muammolari.
4. SHaxsni tarbiyalovchi makro va mikro muhit tushunchasi .
5. Ijtimoiy psixologiyaning O'zbekistondagi rivojlanishi.
6. Kichik guruhlardagi dinamik jarayonlar.
7. Kichik guruhlarning klassifikatsiyasi.
8. Maktab va ta'lim muassasalariga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatish.
9. Nizolar psixologiyasi va uning kelib chiqishi.
10. Shaxsning ijtimoiylashuvi.
11. Millatga xos xususiyatlar
12. Psixologik xususiyatlarning vujudga kelishida tabiiy-geografik muhitning roli.
13. Beruniyning etnopsixologik qarashlari

14. O'zbek xalqiga xos ayrim psixologik xususiyatlar va ularning shakllanishi sabablari.
15. Milliy xarakterning tashkil etuvchi komponentlar.
16. Milliy tuyg'ularga xos xususiyatlar.
17. Ijtimoiy muhitning psixologik iqlimi haqida.
18. Psixologiya fanining turli tarmoqlari metodlaridan din psixologiyasida foydalanish imkoniyatlari.
19. "Rolli nazariya" zamonaviy din psixologiyasida rollarni qabul qilish nazariyasi sifatida (Ya.Sunden, N.Xolm, U.Vikstrem).
20. Din psixologiyasida "Atributsion nazariya" (B.Spilka, F.R.Shayver, L.Kirkpatrik).
21. Dinining zamonaviy psixoanalitik interpretatsiyasi (A.Vergot, N.R.Goldenberg, A.-M.Rizzuto).
22. Din psixologiyasida germeneytik yondashuvlar: dinning madaniy psixologiyasi (Ya. Belzen, A.Gels).
23. Dinining zamonaviy psixoanalitik interpretatsiyasi (A.Vergot, N.R.Goldenberg, A.-M.Rizzuto).
24. Diniy kontekstda gender reallik yelementlarining tadqiq qilinishi (N.Goldenberg).
25. "Gender" "Ibrohim dinlari" ning bosh muammosi sifatida.
26. Dinni tadqiq qilishga nisbatan fenomenologik yondashuv (G. van der Leuv, R.Otto).
27. Din fenomenologiyasi va dinning fenomenologik psixologiyasi (D.Vulf).
28. Dinning yevolyusion va kognitiv psixologiyasi (L.Kirkpatrik, P.Buaye, S.Atran).
29. Sobiq ittifoq davrida diniy psixologiya muammolariga munosabat.
30. Diniy ibodat jarayoniga xos psixologik kechinmalar tahlili.
31. Dinpsixoterapevtik ta'sirining psixologik mexanizmlari tahlili.
32. Dindorlar jamoasi ijtimoiy-psixologik muammolari.
33. Dindorlik psixologiyasining ontogenetik taraqqiyotdagi o'rni.
34. Nodiniy e'tiqod va diniy e'tiqod: o'xshash tomonlari, farqlari va o'zaro munosabatlari dialektikasi.
35. Diniy e'tiqod psixologik fenomen sifatida.
36. Jahon dinlarida diniy e'tiqod masalasining psixologik qo'yilishi.
37. Turli diniy ta'limotlarda maxsus psixotexnikalardan foydalanish xususiyatlari.
38. Diniy fanatizmning boshqa turdagi mutaassiblikdan farqi.
39. Diniy kultlardagi guruh shaxslarning psixologik xususiyatlari.

40. Noan'anaviy diniy oqimlar va ta'limotlar paydo bo'lishining ijtimoiy va psixologik omillari.

3.	VI. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar) Talaba bilish kerak: katta va kichik guruhlar ijtimoiy psixologiyasi; shaxsning jamiyatda ijtimoiylashuvi jarayoni; etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar hamda milliy urf-odat, an'analar va ularning ijtimoiypsixologik funktsiyalari haqidagi bilimlarga ega bo'lishi; shaxs va jamiyat o'zaro munosabatining turli qirralarini; zamonaviy ijtimoiy psixologiya va etnopsixologiyaning tadqiqot metodlarini; milliy tuyg'ular, etnik attityud va steriotipni, ijtimoiy-psixologik xizmat ko'rsatishning yo'nalishlarini, ommaviy madaniyatning millatga ko'rsatadigan ta'sirini bilishi va ulardan foydalana olishi ko'nikmalariga ega bo'lishi; nazariy-metodologik jihatdan o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotga joriy etish; psixologiyasi qonuniyatlarini bilgan tarzda ijtimoiy-psixologik treninglar o'tkaza olish; tadqiqotlarda olingan natijalarni ilmiy asoslab tahlil qila olish; sportchilarda liderga xos sifatlarni tarbiyalash malakalariga ega bo'lishi kerak
4.	VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: interfaol keys-stadilar; (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); guruhlarda ishlash; amaliy mashg'ulotlar taqdimotlarni qilish; individual loyihalar; jamoa ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. ijodiy ishlar yaratish
5.	VIII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, ijod qilish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha amaliy ishni topshirish.

6.	IX. Asosiy adabiyotlar 1. Sotsial psixologiya. Darslik: / V.M. Karimova, O.E. Hayitov, N.Sh. Umarova; Mas'ul muharrir V.M. Karimova; O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti. – Chirchiq: 2020. – 270 b. 2. M. Isaqova. Sotsial psixologiya. O'quv qo'llanma. - F. 2020 3. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya: Darslik. Oliy o'quv yurtlari bakalavriat va magistratura talabalari uchun. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012. – 172 b.
----	--

	4. Chernova G.R. Sotsial`naya psixologiya : uchebnik dlya bakalavriata i spetsialiteta / G. R. CHernova. — 2-e izd., ispr. i dop. — M. : Izdatel'stvo Yurayt, 2019. — 187 s. — (Seriya: Bakalavr i spetsialist). 5. Barotov Sh.R., Muxtorov E.M., Solieva R.J., Olimov L.Ya. Mentalitet psixologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent “Fan” nashriyoti – 2009. – 120 b. X. Qo'shimcha adabiyotlar 1. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent, 2021. -458 b. 2. Асмолов А. Г. Психология личности: культурно-историческое понимание развития человека : Учеб. для студ. вузов, / А. Г. Асмолов. - 3-е изд., испр. и доп. - М. : Смысл: AcademiA, 2007. 526 с. - (Психология для студента). 2003, 2004, 2005 3. Психология личности в трудах отечественных психологов / Сост. и общ. редакция Л.В.Куликова. - СПб. : Питер, 2001. - 476 с 4. Орлов А.Б. Психология личности и сущности человека: Парадигмы, проекции, практики : Учеб. пособие для студ. вузов, обучающихся по спец. "Психология" / А.Б. Орлов. - М. : AcademiA, 2002. - 271 с. 5. Елисеев, О. П. Практикум по психологии личности / О.П. Елисеев. М.: Питер, 2007. - 512 с. Axborot manbaalari 1. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi hukumati portali 2. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari mta'lumotlari milliy bazasi. 3. http://www.edu.uz–O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti. 4. http://www.uzedu.uz – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi sayti. 5. http://www.ziyonet.uz/
--	---

7.	Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025-yil 30-iyundagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan
8.	Fan/modul uchun ma’sul va dastur mualliflari: Yulchiboyeva D.- Qo‘qon, DPI Psixologiya kafedrası o‘qituvchisi
9.	Taqrizchilar: Jo‘rayev N.S - Qo‘qon, DPI psixologiya fanlari nomzodi, dotsent M. T. Isaqova –FarDU, psixologiya fanlari bo‘yicha DSi, dotsent.